



## **MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA JADIDCHILIK MEROSI**

**Abdulahatov Ilyosbek Faxriddin o‘g‘li**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*Islomshunoslik fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi, ma‘rifatparvar, noshir va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Maqolada Behbudiyning millatni jaholatdan qutqarish, ilm-fan va zamonaviy ta‘limni targ‘ib qilish yo‘lidagi fidokorona xizmatlari, xususan, “yangi usul” maktablarini tashkil etish, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan “Padarkush” dramasini yaratishi va “Oyna” jurnali orqali ilg‘or g‘oyalarni tarqatishi kabi jihatlar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, uning Turkiston muxtoriyati uchun kurashi va sovet hukumati tomonidan qatl etilishi fojiasi ham bayon qilingan. Maqolada jadidlar merosining bugungi O‘zbekiston uchun ahamiyati, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning jadidlar merosini o‘rganishga qaratayotgan e‘tibori ham ta‘kidlab o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, Turkiston, ma‘rifatparvarlik, yangi usul maktabi, “Padarkush” dramasi, “Oyna” jurnali, Turkiston muxtoriyati, milliy istiqloq, ta‘lim islohotlari*

### **KIRISH**

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati mintaqa xalqlari taqdirida muhim rol o‘ynagan. Bu harakatning asosiy maqsadi ma‘rifat, ilm-fan va madaniyat orqali jamiyatni uyg‘otish, taraqqiyotga erishish hamda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirishdan iborat edi. Jadidlar o‘z davrining ilg‘or g‘oyalarni ilgari surib, ta‘lim, matbuot, teatr va adabiyot sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdilar. Ushbu harakatning eng yirik namoyandalaridan biri, shubhasiz, Mahmudxo‘ja Behbudi (1875-1919) hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat ta‘lim-tarbiya, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda ham chuqur iz qoldirgan. Mazkur maqolaning maqsadi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy, pedagogik, publitsistik va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, uning jadidchilik g‘oyalarni shakllantirishdagi o‘rnini atroflicha tahlil qilish, shuningdek, jadidlar merosining bugungi O‘zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Maqolada Behbudiyning ma‘rifatparvarlik qarashlari, “Padarkush” dramasi orqali ilgari surgan g‘oyalari va publitsistik merosi ilmiy mezonlar asosida ko‘rib chiqiladi. Tahlil jarayonida jadidchilik harakatining tarixiy konteksti, Behbudiyning shaxsiy hissasi va uning g‘oyalarning zamonaviy O‘zbekiston uchun dolzarbligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ko‘rsatiladi.

“Mahmudxo‘ja Behbudi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol ishtirok etgan, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschilaridan biri hisoblanadi.



U Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqillik g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi bo'lgan.”<sup>1</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida ta'lim tizimidagi islohotlarning zarurligini chuqur anglagan. An'anaviy madrasa ta'limini zamonaviy fanlar bilan boyitish, “yangi usul” maktablarini tashkil etish orqali millatni jaholatdan qutqarishni asosiy vazifa deb bilgan. 1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy Halvoyi, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog'ida, Hoji Muin Xo'ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadilar. Bu maktablar o'quvchilarga dunyoviy fanlar, jumladan, matematika, geografiya, tarix va tabiiy fanlarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi zamonaviy bilimli va ongli avlodni tarbiyalash edi. Behbudiy shariat ilmlarini ham yaxshi bilgan “ U shariat qonunlarini puxta o'zlashtiradi va muftiy lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftiylik faoliyati bilan muntazam shug'ullanadi”<sup>2</sup>. Ko'rinib turibdiki Behbudiy har tomonlama yetuk shaxs, vatanoarvar inson bo'lgan faqat diniy ilmlar bilan cheklanib qolmay dunyoviy ilmlarni ham o'rganish va o'rgatishga kuchli rag'bat ko'rsatgan.

“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqru-zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxliklar oramizda doimo hukmfarmo bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmoqdan boshqa iloji yo'qdir”<sup>3</sup>. Behbudiy millatning mustamlaka va bandi bo'lishining asosiy sababi ilmsizlik deb hisoblaydi va bor kuch g'ayratini xalqni ilm olishga zamonaviy ilm va kasblarni egallashga chaqiradi. Shu sababli ham Mahmudxo'ja boshqa mamlakatlarga qilgan safarlari davomida o'sha yerlarda ko'rgan yangiliklarni o'z yurtida ham joriy qilishni juda ham hohlagan va vatanini bu mustabid tizimning zulmidan ozod qilishning birdan bir yo'li ilm va ma'rifatda ekanini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham keyinchalik bosqinchi hukumat vakillari millat orasidagi ma'rifatparvar ziyolilarni jismoniy yo'q qilishni boshladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy til masalasiga katta e'tibor qaratgan. Uning “Ikki emas, to'rt til lozim” nomli maqolasi (“Oyna” jurnali, 1913-yil, 1-son) yoshlarning ilm egallashida ko'plab tillarni bilish muhimligini ta'kidlaydi. U Turkiston aholisi uchun turkiy (o'zbek), forsiy, arabiy va rus tillarini bilish zarurligini qayd etgan. “Biz Turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdir. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru-tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi - arabiy,

<sup>1</sup> M.Sharipov. Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy faoliyatida inson kapitalini yuksaltirish masalalari.

<https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiy-ilmiy-faoliyatida-inson-kapitalini-yuksaltirish-masalalari>

<sup>2</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy Abdurashidov Z. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.– B.9

<sup>3</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy Madg'oziyev O'. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. – Toshkent: Zabarjad media 2025. B. 6



muallim - turkiy, taqriru-tarjimaning forsiyligi ajibdur"<sup>4</sup> Behbudiy bu tillarni bilish orqali millatning ma'rifiy va iqtisodiy jihatdan yuksalishiga ishonch bildirgan. Uning bu qarashlari shunchaki til o'rganishga chaqiriq emas, balki millatning jahon sivilizatsiyasi bilan integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuv edi. Behbudiy rus tilini bilish davlat ishlari va hukumat maktablarida o'qish uchun zarurligini, vatan va millat uchun xizmat qilish, davlat lavozimlariga ko'tarilish esa dunyoviy ilmsiz bo'lmasligini ta'kidlagan. Uning fikricha, "Arabiy til din uchun qaydarajada lozim bo'lsa, rus tili dunyo uchun lozimdir. Behbudiyning bu qarashlari milliy o'zlikni saqlagan holda, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand bo'lishga intilishning yorqin namunasi. Uning ta'lim sohasidagi islohotlari Turkiston xalqlarining ma'rifiy uyg'onishiga zamin yaratgan va kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan. Jadid maktablarida o'qitish metodikasi ham tubdan farq qilib, yodlashga emas, balki tushunish va amaliy ko'nikmalarni egallashga urg'u berilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek dramaturgiyasining asoschisi sifatida ham tanilgan. Uning 1911-yilda yozilgan mashhur "Padarkush" dramasi milliy teatr san'atining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Ushbu drama dastlab Samarqandda 1914-yil 15-yanvarida sahnaga qo'yilgan. Muallif "milliy fojia" deb atagan bu asarda nodonlik, ilmsizlik va johillik qattiq tanqid qilingan. "Padarkush" nafaqat badiiy asar, balki jadidlarning ma'rifiy g'oyalari xalqqa yetkazishning samarali vositasi ham edi. Asar o'z davrining ijtimoiy muammolarini, xususan, ta'limsizlik, isrofgarchilik va ota-onalarning farzand tarbiyasiga beparvoligi kabi illatlarni keskin tanqid ostiga olgan. Asarda Behbudiy Turkiston jamiyatining o'sha davrdagi achinarli ahvolini, ilmsizlik va tarbiyasizlikning fojiviy oqibatlarini badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Asar orqali u xalqni ilm olishga, zamonaviy kasblarni egallashga chaqirgan. U teatrni xalqni uyg'otish, ma'rifat tarqatish va ijtimoiy muammolarni ko'rsatishning samarali vositasi deb bilgan. Dramaning asosiy g'oyasi – ilm va ma'rifatning millat taraqqiyotidagi hal qiluvchi o'рни, jaholatning esa inqirozga olib kelishi edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat dramaturg, balki sermahsul publitsist va jurnalist ham bo'lgan. Uning "Oyna" jurnali va "Samarqand" gazetasi jadid tafakkurining keng yoyilishida muhim rol o'ynagan. Bu nashrlar orqali Behbudiy o'zining ma'rifiy g'oyalari, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini xalqqa yetkazgan, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar haqida ma'lumotlar berib borgan. U matbuotni jamiyatni uyg'otish, ilg'or g'oyalarni targ'ib qilish va jaholatga qarshi kurashishning eng kuchli quroli deb bilgan. "Oyna" jurnali o'z sahifalarida ta'lim, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va siyosatga oid dolzarb masalalarni yoritib, Turkiston ziyolilari orasida katta ta'sirga ega bo'lgan. Behbudiyning xorijiy safarlari va ularning taassurotlari uning publitsistik merosida alohida o'rin tutadi. U Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Berlin va Misr kabi mamlakatlarga sayohat qilib, u

<sup>4</sup> Maxmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar. Hasanov B. Toshkent. "Ma'naviyat", 1999, B.49



yerdagi ilg'or tajribalarni o'rgangan. Bu safarlar uning dunyoqarashini kengaytirib, Turkistonning qoloqligini yanada chuqurroq anglashiga va uni taraqqiyot yo'liga olib chiqish uchun yangi g'oyalarni shakllantirishiga yordam bergan. "Oyna" jurnalining 1914-yildagi 31-sonida u o'zining sayohat rejaları haqida shunday yozgan: "Oqibat qaror berildiki, Kavkaz va Qrim vositasi-la Istanbulg'o, aynan Yunonistong'o kirib, Rum eli temir yo'li Bulg'oriston, Avstriya va Bayrut tariqi-la Misral-Qohiraga borib, yana qaytishg'o Istanbulg'o kirib, Rum eli temir yo'li ila Bulg'oriston, Avstriya va Berlin tariqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistong'o avdat etilsa, ikki-uch oydan beri ushbu safarning tahiyyasi (duo, salam)da eduk. Bul asnoda Peterburg'da bo'lg'uchi Milliy majlis mashvaratig'o bormoq uchun Duma vakili janobi Taklikufdan taklif tiligrofi va savolnomalar keldi. Savolnomalarig'o keraklik javoblar yuborilib, ma'attaassuf (afsuski), borishg'o safar mone' bo'ldi. Emdi safarg'o' azm etduk"<sup>5</sup> (M. Behbudiy "Oyina" j. 1914-yil, 31-son).

U borgan shaharlarida albatta matbuotga ham qiziqib ko'radi, tahririyatlarga borib, ijodiy jamoa bilan tanishadi. Buni Behbudiy "Oyina" jurnalining bir necha sonida e'lon qilgan "Sayohat xotiralari"da uchratish mumkin. Qolaversa Behbudiy O'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namoyondasidir. O' o'zining "Padarkush" drammasi bilan xalqqa ilm olishni, zamondan ortda qolmaslikni, johillik millatni o'ldirishini yetkazmoqchi bo'ladi va shu maqsadda teatrlar tashkil etadi. Umuman olganda qaysi yo'l bilan bo'lmasin millatni ilmi qilishga va manashu orqali mustamlaka zulmidan halos bo'lishga harakat qilgan edi. Va bu borda Behbudiyning mehnatlari besamar ketdi deyish ham katta hatto sababi Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishida Behbudiyning ham hizmatlari beqiyos edi. "27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi shubhasiz Behbudiy edi. "27-noyabr Qo'qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e'lon qilindi. Kamina ham majlisdaq bo'lishdan iftixor etaman. Yashasin Turkiston muxtoriyati!– deb yozgan edi Behbudiy"<sup>6</sup>. Ammo Turkiston muxtoriyati uzoq yashamadi bor-yo'g'i 72 kungi faoliyat yuritdi. "Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida 25-martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl gilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi"<sup>7</sup>. Sovat hukumati yana bir Turkistonning ma'rifatparvar jadidi jismonan yo'q qildi. Ammo yillar o'tgani bilan Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy merosti va hayot yo'li unutilib yuborilmadi. Jadidchilik harakati va Mahmudxo'ja Behbudiyning merosi mustaqil O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Jadidlarning ma'rifat, ilm-fan,

<sup>5</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar. Hasanov B. Toshkent. "Ma'naviyat", 1997, B.54

<sup>6</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy Abdurashidov Z. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.– B.22



milliy o'zlikni anglash va taraqqiyot g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan jadidlar merosini o'rganish va tatbiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, “PQ-201-son 30.05.2024. Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish tog'risidagi qarori”<sup>8</sup>. buning yorqin dalilidir. Bu qaror jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, ularning ilmiy va ma'rifiy merosini keng targ'ib qilishga xizmat qiladi. Muzeyning tashkil etilishi jadidlarning boy madaniy va ilmiy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatda ilm olishga, kitobxonlikka, sport va san'atga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu islohotlar jadidlarning orzulari ro'yobga chiqayotganining amaliy ifodasidir. Jadidlar, o'z davrining cheklangan sharoitlariga qaramay, millatning ilm-ma'rifatli bo'lishi uchun jon fido qilganlar. Agar ularda bugungi kabi hurriyat va imkoniyatlar bo'lganida, ular yanada ulkan yutuqlarga erishgan bo'lar edilar. Bu fikr jadidlarning ulkan salohiyatini va ularning vatanparvarlik ruhini ko'rsatadi. Bugungi kunda O'zbekistonning “Uchinchi Renessans” poydevorini qurishga qaratilgan sa'y-harakatlari jadidlarning millatni yuksaltirish orzusining mantiqiy davomidir. Bu jarayonda jadidlarning ilg'or g'oyalari, ayniqsa, ta'lim va ma'rifatga bo'lgan e'tibor, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.Sharipov. Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy faoliyatida inson kapitalini yuksaltirish masalalari. <https://cyberleninka.ru/article/n/mahmudxo-ja-behbudiy-ilmiy-faoliyatida-inson-kapitalini-yuksaltirish-masalalari>

2. Mahmudxo'ja Behbudiy Abdurashidov Z. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

3. Mahmudxo'ja Behbudiy Madg'oziyev O'. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. – Toshkent: “Zabarjad media”, 2025

4. Maxmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar. Hasanov B. Toshkent.“Ma'naviyat“, 1999

5. Maxmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar. Hasanov B. Toshkent.“Ma'naviyat“, 1997

6. <https://lex.uz/uz/docs/-7027939>

---

<sup>7</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy Abdurashidov Z. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.– B.25

<sup>8</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-7027939>